

Date: 17th November-2024

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MA'MURIY HUDUDNI QIZIL TOIFADAN CHIQRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLARINING RAQAMLI RIVOJLANISHGA BO'LGAN TA'SIRI VA BU YO'NALISHNI TASHKIL ETISHDAGI O'ZARO HAMKORLIK XUSUSIYATLARI

Abibullayev Ikrom Qarliboy uli
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-o'quv kursi 319-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada profilaktika inspektorlarining ma'muriy hududni qizil toifadan chiqarish chora-tadbirlari tushunchasi, ularning asosiy yo'nalishlari, profilaktika inspektorlarining qizil toifadagi mahallada o'zaro hamkorligi tushunchasi, qizil toifadagi mahallalar xususiyatlari, kriminogen vaziyatga qizil hududlarning ta'siri va profilaktika inspektorlari tomonidan qizil toifadagi mahallalarda ishlash faoliyati va uning huquqiy asoslari hamda ushbu sohada muammo va kamchiliklar, ularning yechimlari yoritib o'tilgan.

Abstract: In this scientific article, the concept of prevention inspectors' measures to remove the administrative area from the red category, their main directions, the concept of mutual cooperation of prevention inspectors in the red category neighborhood, characteristics of red category neighborhoods, the influence of red areas on the criminogenic situation and prevention. The inspectors explained the activity of working in the red-category neighborhoods and its legal basis, as well as problems and shortcomings in this area, and their solutions.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, qizil toifadagi mahalla, kriminogen vaziyat, sariq va yashil toifadagi mahallalar, reyting, chora-tadbirlar.

Key words: crime prevention, red-category neighborhood, criminogenic situation, yellow and green-category neighborhoods, rating, measures.

Profilaktika inspektorlari mahalla hududini qizil toifadagi mahalla toifasidan chiqarish uchun o'zaro hamkorlik ishlarini tashkil etish va olib borish samarali hisoblanadi.

Yaqin yillar ichida O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichi sariq qadam tashlab, ko'zga ko'rinarli yutuqlarni qo'lga kirita boshladi. Xorij tajribasi shuni ko'rsatdiki, har tomonla ma bilimli va salohiyatli boshqaruv gina mamlakatni yuqori pog'onalar g a olib chiqadi.

Shuning uchun ham bugun har bir sohada tub islohotlar amal g a oshirilib, ushbu jar ayonga nafaqat markaziy tuman va shaharlar, balki hududlar ham qamrab olinmoqda.

Biroq asr talabi – kelajakning asosiy tendensiyasi bo'lgan raqamli texnologiyalarni tezroq o'zlashtirmay tur ib, kutgan natijalarimiz g a erisha olmasligimiz aniq. Bu borada elektron hukumatning hudu diy raqamli rivojlanish darajasi ham muhim ahamiyat g a ega. Elektron hukumat mamlakat rivojining keng qamrovli strategiyasini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. 2020



Date: 17th November-2024

yilning dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Hududlarning raqamli rivojlanish darajasini baholash tartibi tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra dastlabki baholash respublikamizdagi 203 ta shahar va tumanlar kesimida amalga oshirildi.

Belgilangan tartibga muvofiq, hududlar yakuniy, ya’ni «yashil» – yaxshi, «sariq» – qoniqarli va «qizil» – qoniqarsiz natija bilan baholanadi.

Bunda 4 ta ko‘rsatkich asos qilib olingan. Jumladan:

«**Raqamli infratuzilma**» – ya’ni aholi punktlarining internet, mobil aloqa, «Wi-Fi» nuqtalari va boshqalar bilan qamrab olinganlik darajasiga ko‘ra – (35 ball);

«**Raqamli iqtisodiyot**» – ya’ni elektron schyot-faktura va onlayn nazorat-kassa mashinalaridan samarali foydalanish, mahalliy IT-xizmatlar bozori holati, elektr va tabiiy gaz iste’molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va boshqalar – (25 ball);

«**Ijtimoiy ob’yektlarda tarmoq texnologiyalaridan foydalanish**» – ya’ni ijtimoiy muassasalar (bolalar bog‘chasi, maktablar, poliklinikalar)da internetdan foydalanish hamda ta’lim va boshqa tizimlar, shuningdek, dasturiy mahsulotlarni joriy etish holatini baholash – (20 ball);

«**Raqamli ta’lim**» – ya’ni maktablarni yo‘nalish bo‘yicha diplomga ega informatika o‘qituvchilari bilan hamda o‘quvchilarning «Bir million dasturchi» loyihasi bo‘yicha qamrab olinganligi, aholining IT-sektorida bandligi, IT-o‘quv markazlari va boshqalar – (20 ball). Raqamli rivojlanish holatining yakuniy bahosi bo‘yicha dastlabki bosqichda atigi 28 ta tuman va shaharlar «yashil» ro‘yxatga kirgan. Viloyatlar kesimida o‘tkazilgan baholashda esa, yuqorida aytib o‘tganidek, faqat Toshkent shahrigina yashil ro‘yxatdan joy oldi.

Tumanlar kesimida Raqamli rivojlanish holati qoniqarli deb topilib, «sariq» ro‘yxatga kiritilganlari – 59ta. Shunga qaramay, ular orasida ayrim mezonlar bo‘yicha «a’lo baho»ni qo‘lga kiritib, «Raqamli infratuzilma» doirasida 91 balldan oshganlari ham bor. Viloyatlar kesimida esa 6ta hudud sariq ro‘yxatda.

Raqamli rivojlanish holati qoniqarsiz deb topilganlari, ya’ni «qizil» ro‘yxatdagilar tuman va shaharlar kesimida 116ta, viloyatlar kesimida 7tani tashkil etgan.

Endilikda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, Axborot texnologiyalari vazirligining hududiy boshqarmalari hamda O‘zkomnazorat inspeksiyasi tomonidan ishchi guruhlar tuzilgan holda reytingda qizil ro‘yxatga kirgan va past natija ko‘rsatgan hududlarda o‘rganishlar tashkil etildi. Elektron hukumat markazi tomonidan tayyorlangan takliflar asosida hududlar holatini yaxshilash bo‘yicha ustuvor vazifalar aniqlanib, yo‘l xaritalari ishlab chiqildi va har bir hududdagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi tomonidan tasdiqlandi.

Navbatdagi iyul oyi holati bo‘yicha o‘tkaziladigan baholashga qadar mazkur yo‘q xaritalarida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali kamchiliklar bartaraf



Date: 17th November-2024

etilishi hamda qizil ro'yxatdagi shahar va tumanlar ko'rsatkichi yaxshilanishi ko'zda tutilgan.

Maqsad – har bir shahar va tuman, qolaversa, har bir xonadonda elektron hukumatning keng imkoniyatlaridan foydalanishga sharoitlar yaratish!

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Profilaktika inspektorlarining ma'muriy hududni qizil toifadagi mahalladan chiqarish chora-tadbirlari o'ziga xos bo'lib, ular o'z navbatida respublika hududlarining raqamli rivojlanish tendensiyalariga ta'sir o'tkazadi va bu borada hamkorlikni tashkil etish muhim o'rin tutadi. Profilaktika inspektorlari bu borada quyidagilar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi shart:

1. Mahalla yettiligi;
2. Fuqarolar;
3. Milliy Gvardiya organlari;
4. Ichki ishlar organlari sohaviy xizmat xodimlari;
5. Jamoatchilik tuzilmalari va boshqalar

Yuqoridagi subyektlar bilan hamkorlik orqali profilaktika inspektori ma'muriy hududni qizil toifadan chiqarishi hamda respublika hududlarining raqamli rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

